


**2020- yil 1- mart holatiga ko'ra, yuridik shaxs bo'lgan korxonalar
va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2020- yil yanvar-fevral oylarida viloyatimizda 896 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3 881 ta (23,3 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 20 527 tani tashkil etgan.






Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2020- yil 1- mart holatiga ko'ra, 20 527 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23,3 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 27,4 % savdo, 13,9 % sanoat, 11,6 % qurilish, 7,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,8 % tashish va saqlash, 1,7 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,2 % axborot va aloqa hamda 25,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, % da.

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Tumanlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan
korxonalar va tashkilotlar birlikda.**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Termiz shahri (4 060 ta), Denov tumani (2 437 ta), Jarqo'rg'on tumani (1 593 ta) va Termiz tumani (1 438 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Bandixon (14 ta), Oltinsoy (798 ta) hamda Muzrabot (943 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 19 620 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 3 781 ta (23,9 %) ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, % da.
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Termiz shahri (4 014 ta), Denov (2 373 ta), Jarqo'rg'on (1 537 ta) va Termiz (1 402 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Bandixon (14 ta), Oltinsoy (781 ta) hamda Muzrabot (920 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda.**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2020- yil yanvar-fevral oylarida 896 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019- yilning shu davriga nisbatan 0,7 marta kamdir.

**2020- yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda.**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Termiz shahri (140 ta), Qumqo'rg'on (97 ta) va Sho'rchi (94 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Bandixon (14 ta), Oltinsoy (28 ta) hamda Boysun (31 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2020- yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan
korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda.**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**2020- yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar
va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda.**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko‘pi savdo (365 ta), sanoat (154 ta), qurilish (86 ta) va qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (92 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (11 ta), axborot va aloqa (12 ta) hamda tashish va saqlash (27 ta) faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.


Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

2020- yil 1- mart holatiga ko‘ra 16 352 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, shundan xususiy korxonalar - 6 474 ta, oilaviy korxonalar - 1 673 ta, mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar - 7 853 ta, unitar korxonalar - 144 ta, aksiyadorlik jamiyatlari - 25 ta va boshqalar 183 tani tashkil etgan.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda.

(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yil 1- mart holatiga ko'ra 8 022 tani tashkil etib, ulardan 7 853 tasi yoki 97,9 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 1 892 taga yoki 30,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-fevral oylarida viloyatimizda 392 ta mas'uliyati cheklangan jamiyatlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 174 taga kamdir.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda/

	01.03.2020- y.		2020- y. yanvar-fevral
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Jami	8 022	7 853	392
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	895	867	59
Sanoat	1 289	1 260	62
Qurilish	1 409	1 386	60
Savdo	2 466	2 425	141
Tashish va saqlash	606	591	24
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	318	310	11
Axborot va aloqa	106	105	5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	96	93	2
Boshqa turlari	837	816	28

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning eng ko'p jamidagi ulushi savdo 30,9 %, qurilish 17,6 %, sanoat 16,1 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 11,1 % va boshqa turlari 10,4 % ga to'g'ri keladi. Nisbatan kamklari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 1,2 %, axborot va aloqa 1,3 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 3,9 % va tashish va saqlash faoliyat turlarida 7,5 % ga to'g'ri kelgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning tumanlar bo'yicha soni, birlikda.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2020- yil 1- mart holatiga ko'ra, viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 16 237 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 27,3 % ga oshgan.

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda.

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	shundan:	
		Kichik korxonalar	Mikrofirmalar
Surxondaryo viloyati	16 237	872	15 365
Termiz sh.	3 488	225	3 263
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	536	29	507
Angor	803	41	762
Bandixon	2	-	2
Boysun	731	24	707
Muzrabot	719	20	699
Denov	1 955	145	1 810
Jarqo'rg'on	1 265	64	1 201
Qumqo'rg'on	1 032	51	981
Qiziriq	853	39	814
Sariosiyo	791	54	737
Termiz	1 232	52	1 180
Uzun	800	39	761
Sherobod	956	41	915
Sho'rchi	1 074	48	1026


2020- yil 1- mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tumanlar kesimida jamidagi ulushi, % da.
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3 488 tasi (21,5 %) Termiz shahri, 1 955 tasi (12,0 %) Denov, 1 265 tasi (7,8 %) Jarqo'rg'on hamda 1 232 tasi (7,6 %) Termiz tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 16 237 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 5 495 ta (33,8 %) - savdo, 2 750 ta (16,9 %) - sanoat, 2 327 ta (14,3 %) - qurilish, 1 475 ta (9,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1 459 ta (9,0 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 753 ta (4,6 %) - tashish va saqlash, 272 ta (1,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 245 ta (1,5 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 1 461 tasi (9,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da.
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020- yil yanvar-fevral oylarida 858 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 374 taga kamdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Termiz shahri (137 ta), Qumqo'rg'on (94 ta), Sho'rchi (91 ta) hamda Denov tumanlarida (74 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Bandixon (2 ta), Oltinsoy (25 ta), Boysun (30 ta) hamda Uzun (31 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2020- yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da.
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 364 ta, sanoat 154 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 91 ta va qurilishda 86 ta tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 10 ta, axborot va aloqa 12 ta hamda tashish va saqlashda 27 ta tashkil etilgan.


Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yil 1- mart holatiga ko'ra 1 727 tani tashkil etib, ulardan 1 673 tasi yoki 96,9 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda, davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 202,9 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


Oilaviy korxonalarining soni to'g'risida ma'lumot, birlikda.

	01.03.2020- y.		2020- y. yanvar-fevral
	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
Surxondaryo viloyati	1 727	1 673	256
Termiz sh.	98	98	7
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	92	91	10
Angor	128	127	8
Bandixon	1	1	1
Boysun	22	20	7
Muzrabot	58	57	9
Denov	296	281	16
Jarqo'rg'on	199	190	18
Qumqo'rg'on	104	103	45
Qiziriq	83	83	8
Sariosiyo	86	85	28
Termiz	96	94	16
Uzun	36	34	6
Sherobod	152	151	45
Sho'rchi	276	258	32

Oilaviy korxonalar soni, birlikda.




**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni
tumanlar kesimida soni, birlikda.**



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 30,9 % yoki 517 tasi savdo, 26,4 % yoki 441 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 25,8 % yoki 431 tasi sanoat, 10,3 % yoki 172 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,6 % yoki 26 tasi qurilish, 0,8 % yoki 14 tasi tashish va saqlash, 0,4 % yoki 9 tasi axborot va aloqa, 0,3 % yoki 5 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 3,5 % yoki 58 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da.**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi savdo hamda yashash va ovqatlanish xizmatlarida, eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**2020- yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan
oilaviy korxonalar soni, birlikda.**

	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Surxondaryo viloyati	256	100
Termiz sh.	7	2,7
Oltinsoy	10	3,9
Angor	8	3,1
Bandixon	1	0,4
Boysun	7	2,7
Muzrabot	9	3,5
Denov	16	6,3
Jarqo'rg'on	18	7,0
Qumqo'rg'on	45	17,6
Qiziriq	8	3,1
Sariosiyo	28	10,9
Termiz	16	6,3
Uzun	6	2,4
Sherobod	45	17,6
Sho'rchi	32	12,5

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining asosiy qismi Sherobod (20 ta) Sariosiyo va Qumqo'rg'on (19 tadan) va Sho'rchi (17 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Angor va Boysun (3 tadan) hamda Termiz shahri, Oltinsoy, Muzrabot, Qiziriq (4 tadan) tumanlarida tashkil etilgan.

2020- yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da.




Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, ularning 45,3 % yoki 116 tasi savdo, 26,2 % yoki 67 tasi sanoat, 14,8 % yoki 38 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 9,4 % yoki 24 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,4 % yoki 1 tasi qurilish, 0,4 % yoki 1 tasi axborot va aloqa, 0,4 % yoki 1 tasi tashish va saqlash shuningdek, 3,1 % yoki 8 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020- yil 1- mart holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 372 tani tashkil etdi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan 157 taga yoki 173,0 % ga o‘sgan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Termiz shahri (173 ta), Termiz (39 ta), Uzun (29 ta), Angor (19 ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Nisbatan kamlari Oltinsoy (5 ta), Boysun (6 ta), Jarqo‘rg‘on (8 ta) hamda Qiziriq (10 ta) tumanlariga to‘g‘ri keladi.


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda.




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining 122 tasi qo‘shma, 250 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keladi.



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining ulushi, % da.



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda.**


	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Surxondaryo viloyati	372	122	250
Termiz shahri	173	28	145
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	5	4	1
Angor	19	5	14
Boysun	6	5	1
Muzrabot	13	5	8
Denov	16	8	8
Jarqo'rg'on	10	6	4
Qumqo'rg'on	12	6	6
Qiziriq	10	1	9
Sariosiyo	15	10	5
Termiz	39	15	24
Uzun	29	16	13
Sherobod	13	5	8
Sho'rchi	12	8	4

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2020- yil yanvar-fevral oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 27 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10 taga kamaygan.

Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Termiz shahri (14 ta yoki jamiyati ulushi 51,9 %), Sho'rchi va Qumqo'rg'on (3 tadan yoki 11,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Angor, Boysun va Uzun (1 tadan yoki 3,7 % dan) hissasiga to'g'ri keladi.


2020- yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar davlatlar kesimidagi soni, birlikda.



Afg'oniston Islom Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 20 ta, Rossiya Federatsiyasi - 2 ta, Tojikiston Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Fransiya Respublikasi, Janubiy Koreya va Buyuk Britaniya - 1 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2020- yil yanvar-fevral oylarida Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdo (11 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (7 ta), sanoat (5 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa, yashash va ovqatlanish xizmatlari (1 ta) hamda qurilishda (3 ta) tashkil etilgan.

2020- yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda.



Surxondaryo viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda.

	Jami	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Surxondaryo viloyati	76	45	31
Rossiya Federatsiyasi	37	23	14
Tojikiston Respublikasi	20	12	8
Qozog'iston Respublikasi	10	6	4
Turkmaniston Respublikasi	6	2	4
Gruziya Respublikasi	3	2	1

Viloyatda MDH davlatlarining kapitali ishtirokidagi korxonalarining asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalariga nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 9,9 %, Tojikiston Respublikasi 5,4 %, Qozog'iston Respublikasi 2,7 %, Turkmaniston Respublikasi 1,6 %, Gruziya Respublikasida 0,8 % ga to'g'ri kelmoqda.

**Statistik registrlarni yuritish
bo'limi
Tel.:(76) 223-06-95**